ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

OTAJONOV BOTIRBEK ASHURALIYEVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “MOUTH”/“OG‘IZ” KONSEPTI LISONIY TASVIRIY VOSITALARINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

(ingliz va o‘zbek tillari materiallari misolida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik
(filologiya fanlari)

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Andijon – 2026

UO‘K: 811.111'373.7:008+811.512.133'373.7:008

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Otajonov Botirbek Ashuraliyevich
Ingliz va o‘zbek tillarida “Mouth”/“Og‘iz” konsepti lisoniy tasviriy vositalarining chog‘ishtirma tadqiqi 3

Otajonov Botirbek Ashuralievich
Contrastive study of the linguistic expressive means of the concept "Mouth"/"Og‘iz" in English and Uzbek..... 25

Отажонов Ботирбек Ашуралиевич
Сопоставительное исследование языковых образных средств выражения концепта “Mouth”/“Og‘iz” в английском и узбекском языках 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 54

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

OTAJONOV BOTIRBEK ASHURALIYEVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “MOUTH”/“OG‘IZ” KONSEPTI LISONIY TASVIRIY VOSITALARINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik
(filologiya fanlari)

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3178 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari institutining rasmiy veb-sahifasi (www.adchti.uz)da hamda rasmiy “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abduvaliyev Muhamatjon Arabovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Saidxonov Ma’murjon Muhammedovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Otajonov Ne’matilla filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qoqon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223-42-76; faks: 0(374) 223-42-76 e-mail: asifl_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.Dj.Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.M.Saidxonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida xalqaro muloqot, tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya, xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish jarayonlarida turli xalqlarning olamni idrok etishi hamda milliy-madaniy qarashlarini ifodalovchi til birliklaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq ingliz va o‘zbek tillarida inson tana a’zolari nomlari, xususan, “Mouth”/“Og‘iz” komponentli leksik birliklar va frazeologik iboralarni amaliy muloqot hamda tarjima jarayonida qo‘llashda ularning semantik, uslubiy va milliy-madaniy xususiyatlari o‘rtasidagi tafovutlar muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa mazkur birliklarning ma’no xususiyatlarini, kommunikativ imkoniyatlarini va madaniy mazmunini chuqur anglash, ularni turli tillarda to‘g‘ri qo‘llash hamda tarjimada adekvat qayta yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo tilshunosligida antropotsentrik paradigma doirasida olamning konseptual va lisoniy manzarasi, inson tafakkuri hamda til o‘rtasidagi munosabatlar, konseptlarning milliy tillarda verballashuvi, somatik leksikaning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ustuvor vazifalar qatoriga turli xalqlar konseptosferasida “Mouth”/“Og‘iz” konseptining umumiy va xususiy belgilarini aniqlash, uning nominativ maydonini tashkil etuvchi birliklarning paradigmatik va sintagmatik munosabatlarini, struktur-semantik hamda funksional-stilistik xususiyatlarini, lingvomadaniy va kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini ochib berish, shuningdek, ularning tarjimada qayta yaratilish usullarini belgilash kiradi. Ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida mazkur masalalarni chog‘ishtirma aspektda o‘rganish, konseptning milliy-madaniy xususiyatlari va lisoniy asimmetriyasini aniqlash hamda olingan natijalarni tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda tahlil etish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga xalqaro tajribani tatbiq etish, tillarning o‘ziga xos va mushtarak jihatlarini aniqlashga qaratilgan qiyosiy tadqiqotlarni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Aholi orasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o‘qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta’limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish”[1]. Mazkur ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, ingliz va o‘zbek tillarining milliy-madaniy hamda kognitiv xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish, “Mouth”/“Og‘iz” konseptining lisoniy ifodalanish xususiyatlarini ochib berish va natijalarini xorijiy tillarni o‘qitish hamda tarjima amaliyotida qo‘llash zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari[2] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda turli millat va elatlar konseptosferalarini tizimli talqin qilish muammosi bir qator tadqiqotlarning obyekti sifatida o‘rganilgan. Xorij tilshunos olimlari Yu.E.Proxorov, L.I.Drofa, D.S.Lixachyov, S.A.Askoldov, R.M.Frumkina, A.Vejbitskaya, Z.D.Popova, I.A.Sternin, V.N.Teliya, A.P.Babushkin, V.V.Kolesov, N.D.Arutyunova, V.V.Krasnix, A.V.Trofimova, N.M.Katayeva, U.D.Kambaraliyeva, Z.K.Derbishova, O.A.Ipanova, G.A.Abikanova, A.R.Buteshova, A.P.Babushkin[3]

---

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari.

[3] Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М., 2008. – С. 397; Дрофа Л.И. Ключевые понятия когнитивной лингвистики. – Ош, 2009. – 89 с.; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН – СЛЯ. – 1993, №1. – С. 3-9; Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., 1997. – С. 260-267; Фрумкина Р.М. Концептуальный анализ с точки зрения лингвиста и психолога // Научно-техническая информация. – 1992. Сер. 2. №3. – С. 3-9; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1996. – 416 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – С. 211; Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М. Наука, 1986. – С. 173; Колесов В.В. Концепт культуры: образ – понятие – символ // Вестник СПбГУ. Сер. 2. Вып. 3 (№16), 1992. – С. 16-25; Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. – М., 1988. – С. 339; Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2002. – 284 с; Трофимова А.В. Концепт «Огонь» в современном русском языке: автореф. дисс. канд. филолог. наук: 10.02.01; А.В.Трофимова. – Электрон. текстовые дан. – М., 2005. – С. 26; Катаева Н.М. Русский концепт ВОЛЯ: От словаря – к тексту: дисс. канд. филол. наук: 10.02.01. – Екатеринбург, 2004.– С.180; Камбаралиева У.Д. Темпоральная категоризация в концептуальной картине мира. – Бишкек, 2013. – С. 490; Дербишова З.К. Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры. – Б., 2012. – С. 176; Ипанова О.А. Концепт «Жизнь» в русской языковой картине мира: лингво-культурологический и лексикологический аспекты: автореф. дисс. ...канд. филол. наук; О.А.Ипанова. – СПб., 2005. – 25 с. Абыканова Г.А. Концепт «вода/суу» в русском и кыргызском языках: автореф. дисс. …канд. филол. наук: 10.02.20. – Бишкек, 2012. – С.23; Бутешова А.Р. Концепт «жизнь» в русской и кыргызской языковой картине мира: автореф. дисс. канд. филол. наук: 10.02.20; Бутешова А.Р. – Бишкек, 2012. – С. 22; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж, 1996. – 281 с.

turli tillardagi konseptlarni ilmiy asosda tadqiq etishgan. Mamlakatimizda ham kognitiv tilshunoslik, xususan, lingvokonseptologiyaning umumnazariy, xususiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar M.R.Galiyeva, A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, M.D.Djusupov, M.I.Umarxo‘jayev, A.E.Mamatov, Sh.Safarov, O‘.Q.Yusupov, G‘M.Hoshimov, J.A.Yaqubov, M.A.Abduvaliyev, D. Bahronova[4] kabi tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Til va madaniyat integratsiyasi asosida xorijiy tillar ta’limining barqaror rivojlanish modeli: lingvistik, filologik, linvodidaktik va raqamli yondashuvlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida «Mouth”/“Og‘iz” konsepti lisoniy manzarasini tashkillovchi birliklarning lingvokognitiv, lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda lingvokognitiv tahlil, konsept va u bilan bog‘liq tushunchalarga doir nazariy qarashlarni sharhlash, munosabat bildirish;

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptini ifodalovchi lisoniy tasviriy vositalarning maydoniy tabiati, uning miqyosi, yadro va periferiya birliklarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptini obyektivlashtiruvchi birliklarning struktur-semantik, funksional xususiyatlarini ochib berish hamda tillararo umumiy va farqli jihatlarni ko‘rsatib berish;

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* tarkibli birliklarning lingvopragmatik va lingvomadaniy mohiyatini ochib berish hamda *mouth/og‘iz* semantikasiga ega birliklarni tarjimada qayta yaratish muammolarini o‘rganish hamda samarali tarjima usullarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek adiblari asarlari, izohli lug‘atlarda uchraydigan *mouth/og‘iz* semantikasiga ega lisoniy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini *mouth/og‘iz* nominativ maydonining yadro va periferiya qismlaridan o‘rin olgan birliklarning kognitiv-semantik, struktur-semantik, funksional-stilistik, lingvomadaniy va lingvopragmatik jihatlari tashkil etadi.

---

[4] Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b; Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста // Xorijiy filologiya. №3. – Samarqand, 2011. – B. 26-33; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – 167 b; Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b; Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурология атамалари хусусида// Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике. // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филол. фан. д-ри, проф. Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференсияси материаллари. – Самарқанд, 2010; Yakubov J.A. Konseptning semantik qirralari. – “Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2-kitob. – Farg‘ona, 2018 – B.227-228; Abduvaliyev M.A. To‘siqsizlik konsepti nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz, o‘zbek va boshqa tillar misolida): filol. fan. d-ri diss. – Andijon, 2023; Baxronova D.K. Olamning lisoniy manzarasi tasvirida konsept va konseptosfera// Xorijiy filologiya, 2019. №3. – B. 62-68.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-chog‘ishtirma, maydoniy yondashuv, kognitiv modellashtirish, transformatsiya, komponent tahlil, distributiv hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptini ifodalovchi leksik, morfologik, frazeologik, sintaktik lisoniy tasviriy vositalarning maydoniy tabiati, yadrosi, periferiya qismlari hamda ularni tashkil etuvchi birliklar nomenklaturasi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptini voqelantiruvchi so‘z, so‘z birikmalari, frazeologik birikmalar, sintaktik qurilmalarning struktur-semantik, funksional aspektlariga aloqador tillararo izomorf va allomorf jihatlar ochiqlab berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptining ovqatlanish, so‘zlash yoki ovoz chiqarish uchun xizmat qiladigan bo‘shliq, kirish-chiqish joyi, biror narsaning ochiq joyi, tajribasizlik, sergaplik, kamgaplik, maqtanchoqlik differensial belgi-xususiyatlari aniqlangan;

mouth/og‘iz komponentli frazeologik va paremiologik birliklarning lingvopragmatik, lingvomadaniy jihatlari, ularning tarjimada ekvivalentini topish, deskriptiv hamda madaniy moslashtirish yordamida qayta yaratish usullarining samaradorligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chog‘ishtirilayotgan tillarda *mouth/og‘iz* semantikasiga ega til birliklarining sintagmatik plandagi valentlik imkoniyatlari hamda *mouth/og‘iz* leksemalarini morfologik tarkibiga moslangan tayanch va transformatsion modellar ishlab chiqilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi *mouth/og‘iz* konsepti lisoniy manzarasini tashkillovchi birliklarni qiyosiy o‘rganish natijasida tillararo izomorflik hamda allamorflik jihatlar aniqlangan va asoslangan;

mouth/og‘iz lisoniy tasvirida markaziy ma’no (yadro) hamda chegara (periferik) ma’nolarni ifodalovchi lisoniy birliklarning o‘rni, funksional jihatlari tasvirlangan;

shuningdek, *mouth/og‘iz* tarkibli verbalizatorlarning lingvomadaniy, pragmatik va funksional-stilistik jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy xulosalar dalillangani, barcha materiallar aniq adabiyotlardan keltirilgani, foydalanilgan namunalar va izohlar faktik hamda analitik lisoniy manbalarga asoslanganligi, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanilganligi, ilmiy materiallar respublika va xalqaro doiralarda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilganligi, O‘zR OAK ro‘yxatiga tegishli milliy hamda xorijiy jurnallarda nashr qilingan maqolalar, taklif va tavsiyalar, xulosalarning amaliyotga joriy qilingani, erishilgan natijalarning vakolatga ega tashkilotlar tomonidan ma’qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ingliz va o‘zbek tillarida “*Mouth”/“Og‘iz”* leksemasi maydonini chog‘ishtirish asosida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar lisoniy (lingvistik) kognitologiya, lisoniy pragmatika

(lingvopragmatika), chog‘ishtirma lingvistika, lisoniy madaniyatshunoslik (lingvomadaniyatshunoslik) va zamonaviy leksikologiya, tarjima nazariyasi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari olingan xulosalardan qiyosiy tipologiya, leksikologiya, chog‘ishtirma lingvomadaniyatshunoslik, stilistika, tarjima nazariyasi kabi nazariy fanlar kursi uchun ma’ruza matnlari va seminar materiallari sifatida, leksikografiya amaliyotida inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlar tuzishda, shuningdek, til amaliyoti darslarida qo‘llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida “*mouth/og‘iz*” konseptining lisoniy manzarasini tashkillovchi birliklarning lingvokognitiv, lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptining lingvokognitiv tahlili asosida aniqlangan differensial belgi-xususiyatlari hamda konsept nazariyasiga doir asosiy qarashlarga oid xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209 “Axborotqidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tominidan 2025-yil 28-fevral kuni berilgan № 04/1-780-sonli ma’lumotnoma). Natijada “*mouth/og‘iz*” komponentli frazeologik birliklar va paremiyalar tahlili asosida o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatoriga semantik ma’lumotlar bazasini boyitish imkoniyati yaratilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida aniqlangan *mouth/og‘iz* konseptini ifodalovchi lisoniy tasviriy vositalarning maydoniy tabiati, mazkur konsept maydonining yadro, periferiya qismlari hamda ularni tashkil etuvchi birliklarga, frazeologik birliklar va paremiyalarning ingliz va o‘zbek xalqlari milliy ongida mavjud arxetip tasavvurlar umuminsoniy va milliy, ijobiy, salbiy va betaraf ekanligi, ularda xalqning intellektual va hayotiy tajribasi, donishmandligi, ma’naviy dunyosi, ahloq-odob stereotiplari o‘z ifodasini topishiga oid qarashlari va xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258. “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan 2025-yil 22-yanvarda berilgan 04/1-260–son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida talabalar uchun o‘zbek va ingliz tillarida tuzilgan dastur va o‘quv qo‘llanmalarning mazmuni boyitilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptining lisoniy tasviriy vositalarining konseptual va lingvopragmatik tahlili hamda ularda yoritilgan o‘xshash, farqli jihatlari yuzasidan olingan natijalari O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-yil 1-iyundan 2025-yil 31-maygacha bajarilishi mo‘ljallangan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida nashr qilinadigan “Komparativistika”

(Comparative Studies) ilmiy elektron jurnalining 5-sonida loyiha doirasida amaliyotga joriy etildi. (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan 2025-yil 19-fevralda berilgan 04-04-1/837-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida ushbu konseptning qiyosiy tahlili bo‘yicha elektron resurslar yaratilib, u tilshunoslik tadqiqotlari va ta’lim jarayonida qo‘llanildi;ingliz va o‘zbek tillarida ochib berilgan;

mouth/og‘iz komponentli frazeologik va paremiologik birliklarning lingvopragmatik, lingvomadaniy jihatlari hamda ularni tarjimada ekvivalentini topish, deskriptiv hamda madaniy moslashtirish yordamida qayta yaratish usullariga oid materiallaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O‘zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "Ozbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" nomli eshittirishlarida (2024-yil noyabr va dekabr oylari) foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston 24» ijodiy birlashmasi» davlat muassasasi tomonidan 2025-yil 7-fevral kuni berilgan 05-09-138-sonli ma’lumotnoma). Natijada radiotinglovchilar “*mouth/og‘iz*” komponentli frazeologik birliklar va paremiyalar ingliz va o‘zbek xalqlari milliy ongida mavjud arxetip tasavvurlar umuminsoniy va milliy, ijobiy, salbiy va betaraf ekanligi, ularda xalqning intellektual va xayotiy tajribasi, donishmandligi, ma'naviy dunyosi, ahloq-odob stereotiplari o‘z ifodasini topishi, ikki til materiallari tahlili orqali dalillash xususidagi ma'lumotlarga ega bo‘ldilar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta ilmiy maqola, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari hamda 3 ta xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning hajmi 143 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Olamning kognitiv va lisoniy manzarasi munosabatlari antropotsentrik tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida**” deb

nomlangan bo‘lib, unda zamonaviy tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi va surati "kognitiv lingvistika", "kognitologiya", "kognitivistika" terminlari bilan bevosita bog‘liqligi, hozirda faol rivojlanayotgan tilshunoslik sohalari kognitiv lingvistika asosidan paydo bo‘lganligi haqida ma’lunotlar keltirilgan. Kognitiv lingvistika XX-asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lib, xususan R.U. Langaker, Dj. Lakoff, Ch. Morris, J.R. Anderson, T.R. Anderson, L.V. Barsalou, B. Shvarts, S. Shifer, N.D. Arutyunova, Yu.S. Stepanov, Ye.S. Kubryakova, V.A.Maslova, V.N. Teliya va boshqalar[5] tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi esa, tilshunoslikda yangi lingvistik paradigmaning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Asta-sekin bu yo‘nalish o‘z predmetiga, ichki tuzilishiga ega bo‘ldi. M.E.Chijova[6]ning aytishicha, kognitiv tilshunoslikning asosiy belgilari ong, idrok, konseptualizim, konsepsiya, olamni lisoniyko‘rinishi, kategorizatsiya, konseptosfera, olam manzaralari hisoblanadi.Olamning lisoniy surati[7] deganda, til dunyo va atrof-muhit haqida aks ettiradigan g’oyalar yig’indisi tushuniladi. Bu termin nemis tilshunosi va faylasufi V. fon Gumboldt tomonidan kiritilgan bo‘lib, u har bir til dunyoning o‘ziga xos lisoniy suratiga ega, deb hisoblagan. A.A. Zaliznyakning ta’kidlashicha, olamning lisoniy manzarasi – bu muayyan til jamoasining kundalik ongida tarixan shakllangan va tilda ifodasini topgan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui bo‘lib, voqelikni idrok etish va konseptual tarzda tartibga solishning o‘ziga xos usulidir. “Inson ongida in’ikos topgan olam haqidagi tasavvurlar xususida so‘z yuritgan olimlar uni turli atamalar bilan ataydilar. Masalan, B.Uorf[8], G.Kolshanskiylar olam manzarasi[9], D.Potebnya olam obrazi[10], G.Gachev milliy kosmos yoki Kosmo-Psixo-Logos[11] terminlaridan foydalanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, zamonaviy kognitiv lingvistika keng ko‘lamli tadqiqotlar yo‘nalishlaridan foydalanadi. Ushbu ilmiy yo‘nalish uchun olamning lisoniy manzarasini shakllantiradigan ma’lum bir madaniyat kontekstidagi lisoniy unsurlar muhim rol o‘ynaydi, deb o‘ylaymiz. Darhaqiqat, olamning lisoniy manzarasi tilda aks ettirilgan dunyo haqidagi bilimlar majmui, shuningdek, yangi bilimlarni olish va ularni idrok etish tushuniladi.

Hozirgi zamonaviy olimlardan N.D.Arutyunova, E.S.Kubryakova, V.N.Teliya, V.A.Maslova va boshqalarning fikrlariga qo‘shilgan holda yana bir

---

[5] Langacker R. W. Concept, image, and symbol: the cognitive basis of grammar. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2002., Barsalou L. Frames, concepts and conceptual fields // Eds. Lehrer A., Kittay E. Frames, Fields and Contrasts. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1992. – pp. 21–74., АрутюноваН. Языкимирчеловека. М., 1999. С. 793., Степанов Ю. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. М., 2001. С. 43.УДК 398.91(470), Маслова В. Когнитивная лингвистика. Минск, 2005. с. 6., Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический, культурологический аспекты. – М., 1996. – 284 с.

[6] Чижова М. Е. Языковая картина мира как одно из основных понятий в современной когнитивной лингвистике // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Филология. Журналистика. – 2011. – Т. 11, № 4. – С. 3–6. – DOI: 10.18500/1817-7115-2011-11-4-3-6. – URL: https://bonjour.sgu.ru/ru/articles/yazykovaya-kartina-mira-kak-odno-iz-osnovnyh-ponyatiy-v-sovremennoy-kognitivnoy-lingvistike (Murojaat qilish sanasi: 2024-yil 25-avgust).

[7]Даниленко. В.*П.* 2009. Языковая картина мира в теории Л. Вайсгербера -. Филология и человек. № 1: 7-18. 2006.

[8]Уорф Б. Л. Лингвистика и логика // Новое в лингвистике. – М., 1980. – С. 183

[9] Колшанский Г. В. Объективная картина мира в познании и языке. – М., 1990. – С. 62.

[10] Потебня Д. М. Образ мира в слове писателя. – Санкт-Петербург, 1997. – С. 67.

[11] Гачев Г. Д. Ментальности народов мира – М., 2003. – С. 33.

tilshunos olima M.E.Chijova[12] ham olamning lisoniy manzarasi mavzusiga to‘xtalib, birinchi navbatda bilimlarni tilda ifodalashga e'tibor beradi. Uning odamlar ongida dunyoning mantiqiy o‘zgarmas global modeli deb hisoblab, u yerda tildan tilga o‘zgarib turadigan lingvistik komponent periferik joyni egallaydi, deb ta’kidlab o‘tadi. M.E.Chijovaning ta’kidlashicha, “bugungi kunda olamning lisoniy manzarasini o‘rganishda ikkita asosiy yondashuv faol rivojlanmoqda: 1) til rivojlanishining boshlang‘ich bosqichida shaxsning konseptual tizimini belgilaydigan, o‘ziga xos semantik leksik birliklari tomonidan ifodalangan ontologik va empirik bilimlarni o‘z ichiga olib, dunyoning tuzilishi haqidagi o‘ziga xos ma’lumotlarning yetkazuvchisi sifatida xizmat qiladigan olamning sodda lisoniy manzarasini aks ettiradi; 2) alohida lingvomadaniy jamiyat taraqqiyoti jarayonida real dunyoni ko‘rish tizimini tashkil etuvchi olamning milliy lisoniy manzarasi o‘ziga xos leksik birliklar, ma’lum bir madaniyatning doimiylari, grammatik modellar bilan tavsiflanadi.

Demak, olamning lisoniy manzarasi olamning til vositalari yordamida yaratilgan tasvirini anglatadi. Hozirda fanda olamning konseptual, lisoniy, ilmiy, qadriyatli, badiiy va shu kabi manzaralari farqlanadi. Olamning konseptual (kognitiv) manzarasi deganda, birinchi navbatda, hissiy idrok etilgan, anglangan, his etilgan manzara tushuniladi. Olamning lisoniy manzarasi esa konseptual manzaraning tilda gavdalangan, ifoda topgan ko‘rinishidir. Olamning konseptual manzarasi konseptlar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘lsa, olamning lisoniy manzarasi til birliklarining ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalash usullari yig‘indisidir[13].

Konsept tushunchasiga keladigan bo‘lsak, tilshunoslikka kirib kelishi XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo‘lib, uning ilk bora lingvistik termin maqomini olishi bevosita «Концепт и слово» maqolasi va uning muallifi S.A.Askoldov[14] nomi bilan bog‘liq. Muallif "konsept" deganda "bizni fikrlash jarayonida bir xil turdagi obyektlarning noaniq to‘plamini almashtiradigan aqliy shakllanish" ni tushunsa, V.N.Teliya konsept inson tafakkurining mahsuli va ideal hodisadir deydi.

V.A. Maslova esa konseptga bir nechta ta’riflar beradi: konsept - ongimizning mental yoki aqliy resurslari birliklarini va shaxsning bilim va tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasini tushuntirishga xizmat qiluvchi atama va boshqalar. O‘zbek tilshunosligida ham "konsept" tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov[15] "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushunchaning tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namunakonsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi"ni ta'kidlaydi.

[12] Чижова М. Е. Языковая картина мира как одно из основных понятий в современной когнитивной лингвистике // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Филология. Журналистика. – 2011. – Т. 11, № 4. – С. 3–6. – DOI: 10.18500/1817-7115-2011-11-4-3-6. – URL: https://bonjour.sgu.ru/ru/articles/yazykovaya-kartina-mira-kak-odno-iz-osnovnyh-ponyatiy-v-sovremennoy-kognitivnoy-lingvistike (дата обращения: 25 августа 2024).

[13] Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри дисс. – Тошкент, 2020. – Б.16-17.

[14] Попова З. Д., Стернин И. А. Язык и национальная картина мира. - Воронеж: Изд-во «Истоки», 2002.-с.132

[15] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax -2006. B. 25

O‘.Q.Yusupov[16] konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir”, deb fikr bildirsa, professor G‘.M.Hoshimov[17] “konseptual tahlil birligi sifatida xizmat qiluvchi mental faoliyat hosilasi, kognilingvistikada keng ma’lum bo‘lgan muhim va murakkab jarayonlar bo‘lgan nafaqat konseptualizatsiya va kategorizatsiya natijasi, balki appersepsiya, psixologizatsiya, obyektivatsiya, (verbalizatsiya), sotsiologizatsiya, stilizatsiya, sotsiolektizatsiya, analogizatsiya, assotsiatsiya, kognitizatsiya, lingvalizatsiya, (idiolektizatsiya, akrolektizatsiya, bazilektizatsiya, mezolektizatsiya) regiolektizatsiya, dialektizatsiya, variolek-tizatsiya kabilar natijasidir” deb ta’kidlaydi. Professor M.A. Abduvaliyev esa konsept haqida shunday yozadi: “konseptlar o‘z mazmun mundarijasida u yoki bu predmet-hodisaga xos muhim va ikkinchi darajali belgi-xususiyatlardan tashqari uning kognitiv, verbal, lingval, dialektal kabi differensial belgilariga oid bilimlar tizimli ravishda shakllanadi.”[18]

Rus tilshunos olimasi Masaleva N.V[19] aytishicha, somatizmlar olamning lisoniy manzarasini ifodalashda muhim omillardan hisoblanadi. Olima somatizmlarni lug‘at guruhi tarkibida universallik xususiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi, chunki u borliqning boshqa qismlarini tasvirlash vositasi sifatida qo‘llana olishi haqida fikrlarini keltiradi. Olima olamning har qanday lisoniy manzarasida somatizmlarning markazi quyidagi bir necha sabablar bilan izohlanishini ko‘rsatib o‘tadi. Ular inson ongining antropotsentrik paradigmasi, tana tuzilishining bir xilligi (iqlim, tabiiy, hududiy sharoitlarga bog‘liq emas), tanani bir qator metafizik xususiyatlar bilan ta'minlash, tananing fazoning boshlang‘ich o‘lchov parametrlarini belgilash, tananing nafaqat fazoviy, balki vaqt hajmlarini ham o‘lchash vositasi sifatida harakat qilish qobiliyatidir.

“*Mouth”/“Og’iz*” konsepti ingliz, o‘zbek, nemis, rus va boshqa xalqlarning konseptosferalarida muhim o‘rin tutadigan mental birlikdir. Boshqa turli konseptlar singari, “*Mouth”/“Og’iz*” konsepti tartibli ichki tuzilishga ega bo‘lib, uning xarakterli belgilari makro- va mikro-maydonlardir. Biz “*Mouth”/“Og’iz*” konseptining shaxs yoki sotsiumlar ongida mavjud bo‘lgan xususiyatlarini noverbal konseptual attributlar deb hisoblaymiz. Ushbu konseptning verballashgan qismini biz konseptning verbal attributi yoki attributlari deb ataymiz. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz “*Mouth”/“Og’iz*” konseptiga quyidagi ta’rifni berib o‘tmoqchimiz: "*mouth/og’iz*" konsepti - bu ijobiy, salbiy yoki neytral baholashlar to‘plami bo‘lib, u individlarining milliy xotirasida o‘rin olgan va hissiy obraz

[16] Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурология атамалари хусусида// Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – В. 49.

[17] Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике. // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филол. фан. д-ри, проф. Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференсияси материаллари. – Самарқанд, 2010; –В. 69-70.

[18] Abduvaliyev M.A. To‘siqsizlik konsepti nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri...diss. – Andijon, 2023.

[19] Масалева Н.В. Соматизмы в русской языковой картине мира. Автореферат на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Иваново 2010. – С.9


sifatida namoyon bo‘lgan obyektiv borliqning muayyan bo‘lagiga aloqador, muhim va ikkinchi darajali xususiyatlarini aks ettiradi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, biz avval ingliz tilidagi *mouth* leksemasining etimologiyasiga e’tiborimizni qaratmoqchimiz. “*Mouth*” leksemasining etimologiyasi o‘rta ingliz tilidan *mouth/o‘giz*, qadimgi ingliz tilidan "*mūþ*", proto-g‘arbiy german tilidan **munþ*, proto-german tilidan **munþaz* («og‘iz»), proto-hind-yevropa tilidan **ment-* («chaynamoq; jag‘, og‘iz") kabi ma’nolarni anglatadi. Ingliz tilidagi *mouth* leksemasi proto-hind-yevropacha *mnt- va keyinchalik proto-germancha *munþaz (Og‘iz.) dan kelib chiqqanligi tavsiflanadi[20].

O‘zbek tilshunos olimi Sh.Rahmatullayevning[21] *Turkiy so‘zlarning etimologik lug‘ati*da “og‘iz” leksemasining etimologiyasi quyidagicha keltirilgan: *og‘iz* 'ikki lab oralig‘idagi teshik', 'jag‘lar oralig‘idagi bo‘shliq'. Bu ot qadimgi turkiy tildagi 'teshik' ma’nosini anglatgan “aғ” otidan **kichraytirish** ma’nosini ifodalovchi “-(ы)з” qo‘shimchasi bilan hosil qilingan (ЭСТЯ, I, 82; ПДП, 355; Девон, I, 89; ДС, 21); o‘zbek tilida “**a**” unlisi “**â**” unlisiga almashgan, “ы” unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: “aғ + ыз = aғыз > âғиз”.

Quyida biz ingliz va o‘zbek tillarida *mouth\og‘iz* so‘zining etimologik kelib chiqishiga doir chizmani taqdim etmoqchimiz.

OG‘IZ




Lug’atda berislishi	Til	Ta’rifi
aғ kichraytirish ma’nosini ifodalovchi **-(ы)з** qo’shimchasining qo’shilishi	Qadimgi turkiy tili	*Teshik* ma’nosini anglatgan
O’zbek tilida **a** unlisi **â** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattiqlik belgisi yo’qolgan		
Hosil bo’lishi		
aғ + ыз	**=**	**aғыз > âғиз.**
Lug’atda berilishi	Hozirgi zamon o’zbek tili	**og’iz** 'ikki lab oralig’idagi teshik', 'jag’lar oralig’idagi bo’shliq'.

MOUTH

[20]Wiktionary. Mouth // *Wiktionary* [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://en.wiktionary.org/wiki/mouth#:~:text=From%20Middle%20English%20mouth – Дата обращения: 20 июля 2024 г.

[21] Raxmatullayev Sh. Turkiy so‘zlarning etimologik lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Fan va Texnika Davlat qo‘mitasi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent. 2000. 265-bet



Dictionary entry	Language	Definition
*mnt-	Proto-Indo-European *(ine-pro)*	
*munþaz	Proto-Germanic *(gem-pro)*	Mouth
mūþ	Old English *(ang)*	
muþ	Old English *(ang)*	Mouth. Opening, door, gate.
mouth	Middle English *(enm)*	Mouth

Ingliz tilining *Cambridge Advanced Learners' Dictionary* izohli lug'atida esa "*mouth*" ning ta'rifi quyidagicha: *the opening in the face of a person or animal, consisting of the lips and the space between them, or the space behind containing the teeth and the tongue*[22], ya'ni lablar va ular orasidagi bo'shliqdan iborat odam yoki hayvonning yuzidagi teshik yoki tish va tilni o'z ichiga olgan bo'shliq. – *'Open your mouth. Well, your tooth is loose, but you're not going to die about that*[23]. Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi "mouth-og'iz" leksemasining sinonimlari va ma'nodosh so'zlarini keltiramiz:

MOUTH: *cakehole, chops, clam, hash-trap, kisser, laughing gear, maw, neb, north & south, yap, buccal cavity, oral cavity, mouth cavity, os, oral fissure, rima oris, mush, potato trap, piehole, gob, bazoo*.

OG'IZ: *dahan, lablar, dudoq, jag' lunj, lab-lunj, tishlar, milk, til, tanglay*

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, mazkur konseptning ovqatlanish, so'zlash yoki ovoz chiqarish uchun xizmat qiladigan bo'shliq, kirish-chiqish joyi, biror narsaning ochiq joyi, so'zamollik differensial belgi-xususiyatlari aniqlandi hamda "*Mouth"/"Og'iz*" somatizmi polisemantik xususiyatiga ega bo'lib, uning tog'ri va ko'chma ma'nolarida uning tabiiy va interpretatsion belgilari o'z ifodasini topadi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida "Mouth"/"Og'iz" nominativ maydonini tashkillovchi birliklar paradigmatikasi va sintagmatikasi**" deb nomlanib, unda ingliz va o'zbek tillarida "mouth"/"og'iz" leksik-semantik maydoni verbalizatorlari paradigmatik va sintagmatik munosabatlari (turli sathlarda, ya'ni morfologik, leksik, sintaktik sathlarda, frazeoema, tekstema, paremiyalar hamda paralingvistik vositalar kesimida tahlil qilingan va statistik tahlili qilindi), "mouth/og'iz" semantikali leksik birliklarning funksional-stilistik jihatlari (ilmiy, badiiy, publitsistik uslub va troplar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, onomatopeya), ularning asimmetriyasi

[22] Cambridge Advanced Learner's Dictionary. Mouth // *Cambridge Dictionary* [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/mouth – Дата обращения: 20 июля 2024 г.
[23]Twain, Mark. The Adventures of Tom Sawyer. Chapter 2. American Publishing Company–1876. B.89

(sinonimik, antonimik va omonimik qatorlar) haqida so‘z boradi. O‘tgan asrning 80-yillari boshidan maydon nazariyasi M.M.Guxman, A.A.Ufimiseva, N.G.Dolgix, V.G.Admoni, Ye.I.Guliga, Ye.I Shedels, Yu.N.Karaulov[24] kabi rus olimlarining ishlarida takomillashdi va rivojlandi. Aynan, semantik maydon tushunchasi A.A.Potebnya, M.M.Pokrovskiy[25] kabi rus olimlarining semasiologik tadqiqotlari natijasida shakllandi va rivoj topdi. Tilshunoslikka maydon nazariyasi birinchi bo‘lib, tilshunos olim G.S.Shur[26] tomonidan olib kirilgan. U leksika va morfologiyaga taalluqli morfosemantik maydonlarni farqlagan va maydon tushunchasini umumiy semantika va morfem tarkibi bir hil bo‘lgan so‘zlar guruhidan iborat, deb hisoblagan.

Maydon nazariyasi borasida o‘zbek tilshunos olimlari ham o‘z hissalarini qo‘shganlar. Masalan, J.B.Bo‘ronov tipologik formaning konstituentlari turli distributiv munosabatlarda bo‘ladilar: ularning ba'zilari bir-birlarini to‘ldirsa, boshqalari bir-birlarini rad etadilar deb fikr bildiradi. Yana bir tilshunos olim G‘.M. Hoshimov maydonni dominant yadro va periferiya qismlarga ajratadi. Ma’lum sistemaning markaziy va periferik elementlarini aniqlash, ularning boshqa sistema elementlari bilan o‘zaro aloqa munosabatlarini tiklash nafaqat o‘sha quyi sistemaning sistema ekanligi, balki tilning o‘zi to‘la sistem xarakterga ega ekanligini yoritish uchun ham xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida mouth\og‘iz konseptining nominativ-komminikativ makromaydonini quyidagicha ifoda etamiz: Til sathlarining tuzilishi sintagmatik va paradigmatik aloqalarning organik birligi va tegishli darajadagi birliklar o‘rtasidagi munosabatlar orqali yaratiladi. Sintagmatika va paradigmatika tilshunoslikning ikki asosiy tushunchasi bo‘lib, tilda so‘zlarning qo‘llanish usullarini tavsiflaydi.

Sintagmatika so‘zlarning qanday qilib ma’no hosil qilish uchun jumla va iboralar hosil qilishini tavsiflaydi. Paradigmatika esa tildagi so‘zlarning o‘xshash va farqli tomonlarini ularning grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rganadi. Bu ikkala tushuncha ham til va uning tuzilmalarini tushunish uchun muhimdir. Ular tilshunoslarga lingvistik hodisalarni tahlil qilish va tavsiflashda, muloqot kontekstida til tamoyillarini tushunishda yordam beradi.Masalan, m*outh*ni

---

[24] Гухман М.М. Грамматическая категория и структура парадигм // Исследования по общей теории грамматики. – М., 1969; Ufimseva A.A. Lexical value. Principles semasiology lexicon descriptions. M, 2002. – 240 p.; Долгих Н.Г. Теория семантического поля на современном этапе развития семасиологии //Научные доклады высшей школы. Филологические науки 1972. –С.34; Адмони В.Г. Основы теории грамматики. – М.-Л., 1964. –С.49; Гулыга Е.В., Шендельс Е. И. Грамматико-лексические поля в современном немецком языке. Москва, “Просвещение”, 1969. 184 с. Shendel‘s E.I. Implitsitnost‘ v grammatike // Sb. nauch.trudov MGIIY. Vip. 112. – M., 1977. Vip. 112.; Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография М.: Наука, 1976. 355с.; Бондарко А.В., Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии, Ленинград, 1983, 208 p. (in Russian); Макаев, З.А. Поликультурное образование – актуальная проблема современной школы. / Макаев, З.А. // Педагогика. – 1999. – № 4. – С. 5; Шайкевич А. Я. Распределение слова в тексте и выделение семантических полей / А. Я. Шайкевич // Иностранные языки в высшей школе. – Москва: Росвузиздат, 1963. – Выпуск 2. – С. 14–26.; Щур Г.С. Теории поля в лингвистике. Москва, “Наука”, 1974. 255 с. Филичева Синтаксические поля: Пособие по грамматике немецкого языка для институтов и факультетов иностранных языков: Учебное пособие, 1977:
-С.15-18;

[25] Потебьня.А. А. Концепция А. А. Потебни в свете когнитивной лингвистики (учение о слове); Pokrovsky M.M. About semasiology methods // The Selected works on linguistics. M: Publishing house AN of the USSR, 1959. – 360 p.

[26] Щур Г.С.Теории поля в лингвистике Изд. 4. URSS. 2024. 120 с.

paradigmatik o‘rganish, jumlada uni almashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. *"Lips", "oral cavity", “buccal cavity”* va *"jaws"* kabi. *Mouth*ni sintagmatik o‘rganish, u bilan birga qo‘llaniladigan so‘zlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Masalan, *open mouth*, *smiling mouth* va *chewing mouth* og’izning holati yoki harakati haqida turlicha ma’lumot beradi.

Tilning funksional-stilistik jihatlari tilning quyi tizimlari bo‘lib, har bir quyi tizim leksik vositalar, sintaktik tuzilmalar va hatto fonetikaga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tilda funksional-stilistik jihatlarning paydo bo‘lishi va mavjudligi inson hayotining turli sohalarida muloqotning o‘ziga xos shartlari bilan bog‘liq. Funksional-stilistik jihatlar nafaqat ayrim elementlardan foydalanish mumkin yoki mumkin emasligi, balki ulardan qancha ko‘p yoki oz foydalanish bilan ham farqlanadi.

Bir so‘z yoki ibora turli kontekstlarda turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Misol uchun, "yurak" so‘zi, bir tomondan, insonning organi sifatida, boshqa tomondan, his-tuyg‘ular markazi sifatida ishlatilishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillaridagi “*Mouth”/“Og’iz*” semantikasini ifodalovchi til birliklari turli nutq uslublarida turlicha ishlatiladi. Xususan, bir so‘z yoki ibora ilmiy uslubda aniq va neytral ma’no anglatsa, badiiy uslubda obrazlilik kasb etishi, publitsistik uslubda esa ta’sirchanlik yoki axborot yetkazish vositasiga aylanishi mumkin. I. Ilmiy uslub: ingliz tilida *“oral fissure”, "buccal cavity", “mouth cavitiy”, "oral cavity"* yoki *“rima oris”*, o‘zbek tilida esa *“og‘iz bo‘shlig‘i”* kabi rasmiy va tibbiy terminlar qo‘llaniladi. II. Badiiy uslub: ingliz tilida *raspberry red mouth, bow-shaped lips, rosebud-shaped lips*, o‘zbek tilida esa *g‘uncha lablar, dur tishlar,* kabi badiiy uslubga hos so‘zlar ishlatiladi. III. Publitsistik uslubda “mouth\og‘iz” komponentli birliklar ko‘pincha obrazli, metaforik yoki ta’sirchan ma’noda qo‘llanadi. Bobda til birliklarining ma’nosi o‘xshashlik asosida ko‘chishi jarayonlari: metafora (−At *the mouth of the mall, Savdo markazining og‘zida (kiraverish joyida)*), metonimiya (…four *mouths to feed, …*To‘qqiz og’izni qanday boqaman?), onomatopeya (*smack*, b*urp, chap-chap, qult-qult*) va boshqalar haqida ham fikrlar tahlil qilingan.

Bundan tashqari, “mouth\ og‘iz” semantikali lisoniy birliklar asimmetriyasi ya’ni, bir xil mazmunni turli til birliklari yordamida ifodalash yoki aksincha, turli mazmunlarni bir xil til birligi orqali yetkazish haqida ham so‘z boradi. V. G. Gak lingvistik asimmetriyani ikki fenomen doirasida ko‘rib chiqqan: 1) yadroning va periferiyaning farqlanishi; 2) ifodalovchi va ifodalanayotgan o‘rtasidagi tafovut. Ikkinchi fenomen doirasida u tizimli, struktural va funksional asimmetriyani ajratib ko‘rsatgan[27]. Ular orasidagi aloqalar nisbiy va o‘zaro bog‘liqligi murakkab, ko‘p hollarda ular bir-biriga to‘liq mos kelmasligi mumkin. D.V.Erdineyeva “…asimmetriya abadiy va universal hodisadir, shuning uchun uni tilning "kasalligi" sifatida emas, balki tilning aloqa vositasi sifatida yetishmasligi, tilning tuzilishi va faoliyati bilan bog‘liq tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish kerak deya

[27] Гак В. Г. Асимметрия в языке / В. Г. Гак // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. - М., 1990. - С. 47.

ta’kidlaydi. Tilning semantik va struktur xususiyatlarini chuqur tahlil qilishda sinonimiya, omonimiya va antonimiya kabi hodisalarning ahamiyati beqiyosdir. Masalan, sinonimiya orqali bir xil ma’no bir nechta til birliklari yordamida ifodalasa, omonimiya bir xil shakldagi belgi – so‘z yoki ifoda – turli ma’nolarni anglatishini, antonimiya esa bu hodisalarning qarama-qarshi tomonini namoyon qiladi. Shu nuqtai nazardan, til belgilari va ularning ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanishlar har doim bir-biriga to‘g‘ri kelavermaydi, chunki til tizimi murakkab va ko‘p qirrali o‘zgaruvchan struktura sifatida faoliyat yuritadi. Bir xil belgi turli ma’nolarni o‘zida mujassam etishi mumkin, bu esa so‘zlarning ko‘p ma’noliligini (polisemiyasini) anglatadi. Bunday jarayonlar tilda asimmetriyaning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Tildagi asimmetriya – bu belgi va ma’no o‘rtasidagi bog‘lanishlarning ko‘pincha beqaror va o‘zgaruvchan bo‘lishidir.

Ingliz tilidagi inson, jonivor organi, kirish joyi, teshik ma’nolarini ifodalovchi “*mouth*” so‘zi fe’l sifatida ham bir nechta ma’noda ishlatilib, omonimik qatorni hosil qiladi: *to mouth* - dabdabali gapirmoq; bayon qilmoq, da'vo qilmoq (ishonmay yoki tushunmay turib); a) lablarini jimirlab gapirmoq; b) noaniq gapirmoq, ming‘irlab gapirmoq; chaynamoq, shapillatib chaynamoq; c) tish orasida ushlab (tishlab) turmoq va boshqalar[28].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida hamda qurilish terminologiyasi bo‘yicha elektron lug‘atida tadqiqotimiz obyekti “***og‘iz***” leksemasining omonimi berilgan. Og‘iz: Yangi tuqqan sigirning uch-to’rt kunli sutini yig’ib pishirilgan pishloqsimon taom. Og’iz suti: *Yangi tuqqan sigirning xom suti*[29].

Tadqiqotimizning uchinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida “mouth”/“og‘iz” konsepti verbalizatorlarining lingvopragmatik va lingvokulturologik jihatlari tadqiqi**” deb nomlanib, unda “Mouth”/“Og‘iz” semantikali verbalizatorlarning kommunikativ-pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari, frazeologik birliklari hamda tarjima usullari tahlil etilgan. Muloqot samaradorligi nafaqat tilning lingvistik qonuniyatlarini bilish, balki til birliklaridan muayyan nutqiy vaziyatda to‘g‘ri va optimal foydalanishga ham bog‘liq. Shu bois kommunikatsiya ishtirokchisi tilning strukturaviy va funksional xususiyatlari bilan bir qatorda, nutqiy vaziyat, ijtimoiy-madaniy omillar, pragmatik me’yorlar va kommunikativ strategiyalarni hisobga olishi zarur. Bunda adresant va adresatning jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei, hayotiy tajribasi, faoliyati hamda muloqot sharoiti muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihatlarni o‘rganuvchi pragmatika til birliklarining real muloqotdagi qo‘llanishini tadqiq etuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, uning rivoji Ch. Pirs va Ch. Morris faoliyati bilan uzviy bog‘liq.

J. L.Austin “…lingvopragmatika tilni kontekstda – ijtimoiy, vaziyatli va boshqa sharoitlarda – aloqa vositasi sifatida o‘rganishni maqsad qilgan bo‘lib,[30]

[28] ABBYY Lingvo Electronic Dictionary. Windows-based online dictionary and translation tool. Boston Language Institute. 2000.

[29]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. Учинчи жилд. Н-Тартибли. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, [2006-2008], [2006]. – В.185

[30] Асаева В.В. Теория речевых актов: принципы и проблемы // Вестник науки и творчества. – 2016. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-rechevyh-aktov-printsipy-i-problemy (Murojaat qilish sanasi: 2025 y 4 may).

ishlab chiqqan nutq aktlari nazariyasiga koʻra, har qanday gap uch asosiy bosqichda amalga oshadi deya ta’kidlaydi: lokutiv, illokutiv va perlokutiv. Quyida ushbu uchta nutq aktining farqlarini yaqqol namoyon etuvchi “mouth” leksemasi bilan misollar keltiramiz:

1. Lokutiv akt – bu aytilgan gapning toʻgʻridan-toʻgʻri, soʻzma-soʻz ma’nosi. *"My mouth is dry."* – bu gap lingvistik jihatdan shunchaki ogʻizning quriganini ifodalovchi xabar sifatida tushuniladi. Bu yerda hech qanday qoʻshimcha niyat yoki yashirin ma’no yoʻq, shunchaki fiziologik holat tasvirlangan.

2. Illokutiv akt – bu gap orqali bildirilayotgan maqsad yoki niyat. *"My mouth is dry."* degan gap bir nechta illokutiv ma’nolarga ega boʻlishi mumkin:

Suv soʻrash (*bilvosita iltimos*): aytuvchi suv berishni soʻrashni bevosita aytmaydi, lekin uning ogʻzi quruqligini bildirish orqali tinglovchini suv olib kelishga undaydi.

3. Perlokutiv akt – bu tinglovchiga koʻrsatilgan ta’sir yoki hosil boʻladigan natija. Bu gapni eshitgan kishi qanday reaksiya bildirishi mumkin: *Suv olib kelishi mumkin* – agar tinglovchi bu gapni iltimos sifatida tushunsa.

Noverbal muloqot vositalari ham pragmatik ma’no ifodalaydi. U til birliklarisiz, jismoniy harakatlar va hissiy signallar orqali amalga oshadi; mimika, imo-ishora, tana tili, ovoz ohangi kabi vositalarni oʻz ichiga oladi. Ularning ma’nosi kontekst va ijtimoiy vaziyatga bogʻliq boʻlib, bir xil harakat turli sharoitda turlicha talqin qilinishi mumkin.

L.Vygotskiy[31] noverbal belgilarni bola psixik jarayonlari shakllanishida muhim vosita deb biladi: ishoralar tafakkur va nutq oʻrtasida koʻprik vazifasini bajaradi. Raqam tushunchasining avval barmoqlar orqali, keyin nutq orqali mustahkamlanishi bunga misoldir. A. Leontyev[32] ham noverbal harakatlarni ongli faoliyat tarkibiga kiritib, ularni ijtimoiy tajriba asosida shakllangan kommunikativ harakat sifatida izohlaydi.

Tilshunoslik, psixologiya va semiotika sohalaridagi tadqiqotlar noverbal muloqotni ma’no yaratishning mustaqil tizimi sifatida tan oladi. Noverbal belgilar axborot yetkazish, baholash, munosabat bildirish va ijtimoiy mavqeni koʻrsatish funksiyalarini bajaradi. M.A. Kurbanov[33]ning qiyosiy tadqiqoti ham noverbal vositalar milliy mentalitet, diniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar bilan uzviy bogʻliqligini koʻrsatib, ularning mustaqil semiotik kod ekanini asoslaydi.

Bu jarayonda **mouth/ogʻiz (lab, til, tish)** harakatlari alohida oʻrin tutadi. Ular paralingvistik vosita sifatida hissiyot va munosabatlarni ifodalaydi: mouth shrug – “bilmayman”, befarqlik yoki umidsizlik; down-mouth expression – tushkunlik yoki norozilik; upper lip biting – xavotir, asabiylik; mouth stretching – qoʻrquv yoki xatoni anglash; mouth wide open – hayrat yoki dahshat (koʻpincha universal); one side of mouth raised – nafrat yoki mensimaslik; make a mouth – ogʻizni masxara yoki hazilomuz qiyshaytirish.

[31] Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
[32] Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1977. – С. 158.
[33] Kurbanov M. A. Oʻzbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi: Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2021. – B. 42.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillarida “mouth/og‘iz” konsepti bilan bog‘liq birliklar nominativ ma’nodan tashqari, nutq vaziyati va kommunikativ maqsadga ko‘ra kinoya, istehzo, ta’na kabi pragmatik ma’nolarni ham ifodalaydi. Bu hodisa tillarning madaniy xususiyatlarini aks ettirib, “mouth/og‘iz” konseptining funksional-stilistik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bobda yana jahon tilshunosligida ma’lum millat yoki elat mulki bo‘lgan til va madaniyat munosabatlari tadqiqiga antropotsentrizm nuqtai nazaridan yondashuv urf bo‘lib ulgurgani va jadal rivojlanib borayotgani, va lingvokulturologiya nomi va maqomini olgani hamda fan sifatida shakllanishi, rivojlanish tarixi V.Fon Gumboldt, A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, Ye.M.Vereshagin, Ye.M., Vorkachyov, S.G., E.Sepir, F.Baos, B.L.Uorf, A.Vejbitskaya, V.N.Teliya, N.D.Arutyunova, A.N.Leontyev, V.A. Maslova, V.V. Vorobyov kabi olimlarning nomi va tadqiqotlari bilan bog’liqligi haqida so‘z boradi.

Lingvokulturologiya va tilshunoslikning milliy jihatlariga qaratilgan muhim nuqtalarni ko‘rsatib beruvchi ularning ahamiyatini yanada ochib beruvchi, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy nuqtai nazardan yoritib beruvchi nutqimizning yorqin bezaklaridan biri bu frazeologik birliklardir. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so‘zlarning barqaror yoki turg‘un birikmasidir. Unga juda ko‘plab ta’riflar berilgan. Masalan A.V.Kunin, N.D.Arutyunova, A.N.Leontyev, V.A. Maslova, o‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev[34], M. Umarxo‘jayev, Y. Pinxasov[35], A.E.Mamatov, A. Shomaqsudov[36] va M. Xusainovlarning ilmiy izlanishlari bilan boshlangan. Frazeolog olim M. Umarxo‘jayevning frazeologizmlar tasnifi bo‘yicha taklif etgan konsepsiyasi katta ahamiyatga ega. Olimning 1977-yilda chop etilgan “*Очерки по современной фразеографии*” nomli monografiyasida frazeologik birliklarning so‘z va so‘z birikmalariga o‘xshash hamda farqli taraflari ko‘rsatilgan.

N.M.Shanskiy “Frazeologizmlar va paremiyalar madaniyat va til nuqtai nazaridan eng qimmatli birliklar, madaniy baho posbonlari va xalq ruhiyatini ro‘yobga chiqarish unsurlaridir …[37]” deya ta’kidlaydi. Bobning bu faslida ingliz va o‘zbek tillarida “*Mouth”/“Og’iz*” konsepti verbalizatorlari (frazeologik birliklar)ning lingvomadaniy xususiyatlarininh madaniyat va tabiiy til o‘zaro ta’siri bilan bog‘liqligiga alohida urg‘u berilgan. Masalan, o‘zbek tilidagi *ona suti og’ziga kelmoq* frazeologizmi juda ko‘p urinmoq, qiynalmoq, mashaqqat chekmoq, ma’nolarini beradi. Ingliz tilida biror ishdan yoki hodisadan pand yegan odamga nisbatan *Og’zi kuygan* iborasi ishlatiladi: *–He who has burned his mouth blows his soup*. Yuqoridagilar orqali ingliz va o‘zbek tillarida *mouth/og‘iz* konseptining tajribasizlik, sergaplik, kamgaplik, maqtanchoqlik differensial belgi-xususiyatlari aniqlangani holda mazkur xalqlarining o‘ziga xos hamda mazmunan boy *mouth /*

[34] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – С. 379.
[35] Пинхасов Я. Ўзбек тили фразеологиясининг баъзи масалаларига доир / Фразеология масалалари. Илмий асарлар. – Самарқанд: СамДУ, 1961. –Б.173.
[36] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш., Ш. Ҳикматова. О‘збек мақолларининг изоҳли луғ‘ати. – Тошкент, Ўзбекистон милллий энсиклопедияси, 1990. – Б.
[37] Шанский, Н.М. Фразеология современного русского языка [1963] / Н.М. Шанский. - 3-е изд., испр. и доп. - М.: Высшая школа, 1985. - 160 с.

og‘iz komponentli frazeologizmlar va paremiyalar tizimiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, bobning bu faslida yana ko‘plab olimlarning yuqoridagilarga o‘xshash fikrlari faktik misollar tahlili bilan boyitilgan.

Bobning so‘ngi faslida esa “Mouth”/“Og‘iz” komponentli frazeologik birliklarning tarjimasiga oid fikrlar yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslik o‘rganadigan ko‘plab murakkab muammolar orasida "tarjima" yoki "tarjima faoliyati" deb ataladigan tillararo nutq faoliyatining lingvistik jihatlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Bu soha o‘tgan asrning 50-yillaridan keyin yuzaga kela boshladi, o‘tgan yarim asr davomida amalga oshirilgan ko‘plab tarjimalar asosida tarjimashunoslikning umumiy va maxsus tomonlari o‘rganildi, tahlil qilindi va o‘ziga xos yechimlar topildi. L.S.Barxudarov tarjima deganda mazmun rejasini o‘zgarmagan holda bir tildagi nutqiy asarni (matnni) boshqa tildagi nutqiy asarga aylantirish jarayoni deb ta’riflaydi. Bu shuni anglatadiki ,tarjima qilishda ifoda rejasining birliklari, ya’ni til birliklari almashtiriladi, lekin mazmun rejasi, ya’ni matn orqali uzatiladigan ma’lumotlar o‘zgarishsiz qoladi.

Mazkur faslda amerikalik mashxur yozuvshilar R.Bredberi, T.Drayzer va J.London, o‘zbek adabiyotining taniqli namoyandasi, A.Qodiriy asarlarida “mouth”/“og‘iz” semantikasiga ega til birliklarining (frazeologik birliklar) tarjima usullarini ko‘rib chiqib, undagi yutuq va kamchiliklarini tahlil qilingan. R.Bredberining *Farengeyt bo‘yicha 451 daraja* (*Ray Bradbury, Fahrenheit 451*)[38] romani, A.Qodiriyning *“O‘tkan kunlar” (Bygone days)* romani shular jumlasidandir. Mazkur romanlardan olingan “***mouth/og‘iz***” komponentli til birliklarining tarjimasiga katta e’tibor berilgan. Tarjimada eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradigan til birliklari esa, shubhasiz, frazeologizmlar hisoblanadi. Tilshunos olimlar ularni tarjima qilishda uch asosiy turga ajratib tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb biladilar: 1) To‘liq muvofiqlik, 2) Qisman muvofiqlik, 3) Nomuvofiqlik.

To‘liq muvofiqlik – bu bir tildagi frazeologik birlikka boshqa til tizimida mazmun va shakl jihatdan to‘liq mos keluvchi ekvivalentning mavjudligini anglatadi. Masalan, - *take the bread out of (one's) mouth* - og’zidan nonini/oshini olib qo’ymoq; *melt in (one's)/the mouth* - og’izda erimoq (mazali);

Qisman muvofiqlik – bu holatda frazeologik birlikning boshqa tilda mazmun yoki tuzilma jihatidan to‘liq mos keladigan ekvivalenti mavjud emas, biroq ma’nodosh yoki yaqin ma’nodagi, lekin to‘liq bo‘lmagan mos keluvchi ifoda bilan almashtiriladi. Masalan, - *stop smb’s mouth* – kimningdir og‘zini yopmoq; Nomuvofiqlik – bu holat asl tildagi frazeologik birlikka tarjima tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent topilmaydigan, ya’ni u umuman mavjud bo‘lmagan vaziyatni bildiradi. Bunday frazeologizmlar tarkibida odatda ekvivalentsiz leksik birliklar – muayyan xalq madaniyatiga xos realiyalar – uchraydi. Shuning uchun bu kabi birliklar so‘zma-so‘z tarjima, mazmunga yaqin analoglar yordamida tarjima qilish yoki izohli shaklda ifodalash kabi usullar orqali tarjima qilinadi. Masalan, - *live from hand to mouth* - bazo’r kun kechirmoq; iqtisodiy jihatdan qiynalib yashamoq;

[38] Ray Bradbury FAHRENHEIT 451. Publisher**:** Simon & Schuster. ISBN: 9781451673319. 2012. 249 pages.; Rey Bredberi. Farengeyt bo‘yicha 451 daraja. Jahon adabiyoti jurnali.

XULOSA

1. Olam va uning bo‘laklari haqidagi bilimlar konseptlarda aks etadi va har bir xalq, millatning konseptual olamida namoyon bo‘ladi. Olamning konseptual manzarasi hissiy idrok, anglash va his etish orqali shakllanadi, bu manzara til, ilm, qadriyatlar va san'atda ifodalanadi. Olamning lisoniy manzarasi esa konseptual tasvirlarning tildagi aksidir. Har bir hodisa yoki predmetning belgi-xususiyatlari konsept semantikasini tashkil etib, til birliklarida obyektivlashadi. Olamning konseptual va lisoniy manzaralarini o‘rganish til-tafakkur-madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunish va muloqotni takomillashtirishga yordam beradi.

2. Olam va uning bo‘laklari haqidagi konseptlar va ularning belgi-xususiyatlarida umumiylik bor, ammo har bir xalqning olamni ifodalash usullari o‘ziga xos va individualdir. Olamning konseptual va lisoniy tasvirlaridagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash tillararo muloqotni samarali amalga oshirish, kognitiv bilimlarni chuqurlashtirish va tarjima sifatini oshirishda muhimdir. Bunday bilimlar va ularni obyektivlashtiruvchi vositalar ochiq tizimlarni tashkil etib, yangi bilimlar va ifoda vositalari orqali bu tizim muntazam ravishda kengayib boradi.

3. “Og‘iz” konsepti barcha xalqlar va madaniyatlarga xos universal fenomen bo‘lib, obyektiv borliq hamda uning ayrim jihatlariga beriladigan ijobiy, salbiy yoki neytral baholarni ifodalaydi. Ushbu baholar milliy xotirada aks etib, hissiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Konsept tarkibidagi ongda mavjud belgi-xususiyatlar noverbal konseptual atributlar, ularning lisoniy ifodalari esa verbal atributlar sifatida qaraladi. Chog‘ishtirma tahlil natijalari “mouth”/“og‘iz” konseptining semantik tuzilishida ovqatlanish, so‘zlash va ovoz chiqarish kabi asosiy funksional belgilar bilan bir qatorda, makoniy-semantik jihatdan kirish-chiqish joyi yoki narsaning ochiq qismi, shuningdek, insonning xulq-atvori va kommunikativ faoliyatini ifodalovchi tajribasizlik, sergaplik, kamgaplik, maqtanchoqlik kabi hosila va differensial belgilar ham obyektivlashishini ko‘rsatdi. Mazkur belgilar konseptning nominativ va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, uning ingliz va o‘zbek tillarida o‘z va ko‘chma ma’nolarda voqelanishini ta’minlaydi.

4. Chog‘ishtirilayotgan tillarda “Mouth”/“Og‘iz” konsepti asosida arxisema yotib, u ingliz va o‘zbek tillarida turli lisoniy va nolisoniy vositalar orqali eksplitsit hamda implitsit tarzda verballashadi. Bunday vositalarga tub, yasama va qo‘shma so‘zlar, frazeologik va paremiologik birliklar, so‘z birikmalari, sodda va qo‘shma gaplar, matn hamda paralingvistik vositalar kiradi. Konsept verbalizatorlarining morfologik va grammatik xususiyatlari ham uning lisoniy obyektivlashuvining tarkibiy qismi hisoblanadi. “Og‘iz” konseptining dastlabki nominatsiyasi ingliz tilida *mouth*, o‘zbek tilida *og‘iz* so‘zlari orqali ifodalangan. Hozirgi ingliz tilida 23 ta, o‘zbek tilida 10 ta sinonimi mavjud bo‘lib, ular “mouth” makromaydonini tashkil etadi. Mazkur makromaydon leksik-semantik, frazeo-semantik, fraze-semantik, sentens-semantik va paremio-semantik mikromaydonlardan tarkib topadi.

“Mouth/og‘iz” makromaydoni nominativ va kommunikativ vositalarni qamrab olgani sababli uni nominativ-kommunikativ maydon deb atash maqsadga muvofiq. Makromaydonning yuqori nominativ zichligi uni uzoq periferiya, yaqin periferiya, yadro va dominanta qismlariga ajratish imkonini berdi. Maydon birliklarining o‘rni ularning mazkur semantikani ifodalash darajasi, eksplikatorlik va implikatorlik xususiyatlari hamda faollik darajasiga ko‘ra belgilandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, 256 (0,076%) birlik dominanta, 182 (0,054%) markaziy qism, 126 (0,038%) yaqin periferiya va 75 (0,022%) birlik uzoq periferiya tarkibiga kiritildi.

Shu tariqa, “mouth”/“og‘iz” konseptining nominativ-kommunikativ maydoni struktur jihatdan dominanta, yadro, yaqin va uzoq periferiya birliklarining o‘zaro munosabati asosida shakllanishi, mazkur birliklarning maydondagi mavqei esa ularning konsept semantikasini ifodalash darajasi va funksional faolligi bilan belgilanishi aniqlandi.

5. Ingliz va o‘zbek tillarida “mouth” va “og‘iz” somatizmlari turli til va nutq birliklarida turfa ma’nolarni ifodalab, sinonimik, antonimik va omonimik munosabatlarga kirishadi. Ular polisemantik xususiyatga ega bo‘lib, to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarda og‘izning kattaligi-kichikligi, predmetlar va inson tavsifi bilan bog‘liq tabiiy hamda interpretatsion belgilarni aks ettiradi. Ingliz tilida “mouth” konseptiga oid 6 ta, o‘zbek tilida esa 8 ta uyadosh sema aniqlangan.

“Mouth” va “Og‘iz” semantikali birliklar orasida ingliz tilida 16 ta sinonimi, 13 ta antonim va 2 ta omonim (N; V; N+Suf; N+N; N+Prep+N; N+PII; N+PI; N+V+er; Adj+N; Adj+PII; S+Pr; S+CP; S+Pr+O; S+O+V; S+V+O; Atr+S+Pr+Atr+O; S+Pr+Adv; S+Adv+Pr) tayanch modellar aniqlandi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda “mouth” va “og‘iz” somatizmlari turli so‘z turkumlari bilan sintagmatik munosabatga kirishib, erkin birikmalar, frazeologik birliklar va gaplarni hosil qilishi, to‘g‘ri va majoziy ma’nolarda qo‘llanishi hamda gapda turli sintaktik vazifalarni bajarishi aniqlandi.

Qiyosiy tahlil natijasida mazkur konseptni ifodalovchi birliklarning struktur-semantik va funksional xususiyatlarida umumiy hamda farqli jihatlar mavjudligi dalillandi. Har ikki tilda ko‘pma’nolilik, frazeologizatsiya, metaforik ko‘chish va sintaktik qo‘llanish kabi izomorf xususiyatlar kuzatilsa, semantik kengayish, konnotatsiya, frazeologik-paremiologik shakllar va milliy-madaniy mazmunda allomorf xususiyatlar namoyon bo‘ladi.

6. “Mouth”/“Og‘iz” konsepti verbalizatorlarining funksional-stilistik jihatlarini tadqiq etish natijasida shunday hulosaga keldikki, bunday birliklarni uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf ifodalanishiga ko‘ra stilistik jihatdan bo‘yoqdor va stilistik jihatdan bo‘yoqdor bo‘lmagan guruhlarga ajratdik, ularning metaforik, onomatopik kabi uslubiy xususiyatlari xususan ularning nutq ta’sirchanligi va ifodaliligini ta’minlashdagi relevantlik tomonlari ko‘rsatib berildi.

7. “Mouth”/“Og‘iz” semantikali lisoniy birliklarning asimmetrik xususiyatlari ma’no va belgi o‘rtasidagi munosabatlarning har doim ham mustahkam emasligi, ularning kontekstual xususiyatlari, ijobiy, salbiy va betaraf konnotatsiyalari *a big mouth* va uning 12 ta sinonimlari, 10 ta antonimlari, *og‘zi buzuq*ning 9 ta sinonimi,

9 ta antonimi, *foul mouth, og‘zi bemaza* leksemalari omonimiyasi va antonimiyasi tahlili asosida dalillandi.

8. “Mouth”/“Og‘iz” konsepti verbalizatorlari ma’lum nutqiy kontekstlarda pragmatik ma’no kasb etadi, ayniqsa frazeologizmlar va paremiologik birliklarda bu ma’no, adresatning muloqot maqsadini to‘g‘ri anglab olishida perlokutiv samarani keltirib chiqaradi. Bunday birikmalarning talqini kommunikantlarning hayotiy tajribasi, bilimlari, dunyoqarashi va ahloq-odobiga bog‘liq. “Mouth\og‘iz” semali noverbal vositalarning pragmatik ma’nosini aniqlash esa ko‘pincha muloqot maqsadi va vaziyatga bog‘liq bo‘ladi.

9. Ingliz va o‘zbek tillarida “mouth” va “og‘iz” konseptlarini ifodalovchi milliy-madaniy sema tashuvchi birliklar ikki xalqning o‘ziga xos jihatlari hamda olamni interpretatsiyalash salohiyatini aks ettiradi. “Og‘iz” semali birliklar orasida lakunalar, slenglar, frazeologizmlar va maqollar aniqlandi. Shuningdek, “mouth/og‘iz” komponentli frazeologik va paremiologik birliklarning milliy-madaniy mazmuni ularning qo‘llanish vaziyati, baholovchi-semantik xususiyatlari va kommunikativ-pragmatik yo‘nalishi bilan bog‘liqligi asoslandi. Ularning talqini lug‘aviy ma’no bilan cheklanmay, xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, qadriyatlari va kommunikativ me’yorlarini ham hisobga olishni talab etadi.

10. “Mouth” va “og‘iz” semantikali birliklarni tildan tilga o‘girishda e’tibor markazida bo‘lishini talab etadigan mezon – bu lisoniy va nolisoniy vositalar orqali ifodalanayotgan ma’no va mazmunni adekvat tarzda qayta yaratishdan iboratdir. Ushbu jarayonda asliyatdagi lisoniy va nolisoniy vositaning tarjima tilidagi ekvivalentini to‘g‘ri tanlash muhim o‘rin tutadi. Chog’ishtirilayotgan tillarda “og’iz” semali FBlarni adekvatligi nuqtai nazaridan 3 turga ajratdik: a) To‘liq mufofiqligi mavjud FBlar (14 ta), b) Qisman muvofiqlikka ega FBlar (19 ta), c) Nomuvofiqligi mavjud FBlar (30 ta). To‘liq muvofiqlik kuzatilgan FBlar ularning umumiy miqdorining 22%ni, qisman muvofiqligi bor FBlar 30%ni, tarjimasida nomuvofiqlik kuzatilgan FBlar 48%ni tashkil etdi. Keyingi ikki muvofiqlik darajalari ularning analoglarini topish yoki ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali qoplanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sifatli tarjimani amalga oshirish inson (tarjimon) omili bilan bog‘liq bo‘lib, undan nafaqat lingvistik bilimlar, halq tarixi, madaniyatiga oid bilimlar, balki tadqiqot obyekti bo‘lgan konsept ifoda vositalarining etimologiyasi, rivoji, funksional-stilistik jihatlari borasida chuqur bilimlarga ega bo‘lishi talab etadi.

Tarjima tahlili shuni ko‘rsatdiki, to‘liq ekvivalenti mavjud bo‘lmagan frazeologik va paremiologik birliklarni qayta yaratishda kontekst va kommunikativ maqsadga asoslangan deskriptiv qayta yaratish hamda madaniy moslashtirish samarali usullardir. Bunda shakliy yaqinlikdan ko‘ra, asliyatning konseptual mazmuni, obrazliligi, baholovchi va pragmatik semalarini funksional adekvat ifodalash ustuvor hisoblanadi. Ekvivalent, analog, deskriptiv qayta yaratish va madaniy moslashtirish usullarini lingvomadaniy hamda kommunikativ kontekstga muvofiq qo‘llash “mouth/og‘iz” komponentli birliklar mazmunini adekvat yetkazishning muhim sharti ekanligi asoslandi.

THE SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 AWARDING SCIENTIFIC DEGREE AT ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

OTAJONOV BOTIRBEK ASHURALIEVICH

CONTRASTIVE STUDY OF THE LINGUISTIC EXPRESSIVE MEANS OF THE CONCEPT "MOUTH"/"OG‘IZ" IN ENGLISH AND UZBEK

10.00.13 – Comparative and Contrastive Linguistics (Philological sciences)

ABSTRACT
of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

Andijan – 2026

The theme of the PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission under the Academy of Sciences of the Rupublic of Uzbekistan under the number B2023.1.PhD/Fil3178.

The dissertation has been prepared at Andijan State Institute of Foreign Languages.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.adchti.uz) and the information and education portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Abduvaliev Muhamadjon Arabovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Saidkhonov Mamurjon Muhammedovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Otajonov Nematilla Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading organization:	**Kokand State University**

The defense of dissertation will take place on "_____" _____ 2026 at _____ at a meeting of the Scientific Council awarding scientific degrees DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 at Andijan State Institute of Foreign Languages. (Address: 170100, Andijan city, Babur Avenue 5, Tel: 0(374) 223-42-76, Fax: 0(374) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

The dissertation is available at the Information Resources of Andijan State Institute of Foreign Languages (registration number _____). (Address: 170100, Andijan city, Babur Avenue 5, Tel: 0(374) 223-42-76).

The abstract of the dissertation is distributed on "_____" _____ 2026.
(Protocol at the registered №_____ on "_____" _____ 2026).

D.A.Rustamov
Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

A.Dj.Ataboev
Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

M.M.Saidkhonov
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

INTRODUCTION (Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, particular attention is being paid to the effective use of linguistic units that express different peoples' perceptions of the world and their national and cultural perspectives in international communication, translation, intercultural communication, and the processes of foreign language teaching and learning. However, the differences in the semantic, stylistic, and national-cultural features of the names of human body parts, particularly lexical units and phraseological expressions containing the component "Mouth"/"Og'iz" in English and Uzbek, give rise to certain difficulties in their use in practical communication and translation. This necessitates an in-depth understanding of the meanings, communicative potential, and cultural content of these units, their appropriate use across different languages, and their adequate recreation in translation.

Within the anthropocentric paradigm, extensive research in world linguistics is being conducted into the conceptual and linguistic worldviews, the relationship between human cognition and language, the verbalization of concepts in national languages, and the cognitive, linguocultural, and linguopragmatic features of somatic vocabulary. Priority tasks in this field include identifying the common and distinctive features of the "Mouth"/"Og'iz" concept in the conceptual spheres of different peoples; examining the paradigmatic and syntagmatic relations, structural-semantic and functional-stylistic features, and linguocultural and communicative-pragmatic potential of the units constituting its nominative field; and determining the methods of recreating these units in translation. A contrastive study of these issues based on English and Uzbek language materials, the identification of the concept's national-cultural characteristics and linguistic asymmetry, and the analysis of the findings in relation to contemporary areas of linguistics establish the relevance of the present research.

In our country, large-scale reforms are being implemented to improve the quality of foreign language teaching and learning, introduce international experience into the educational process, and promote comparative studies aimed at identifying the distinctive and common features of languages. These reforms include the task of "popularizing the learning of foreign languages among the population, creating the necessary conditions for their thorough mastery, and coordinating the introduction of internationally recognized foreign language teaching programmes and textbooks at all levels of education"[39]. The need to ensure the implementation of these priority tasks, conduct a comparative study of the national-cultural and cognitive features of English and Uzbek, reveal the linguistic features of the "Mouth"/"Og'iz" concept, and apply the findings to foreign language teaching and translation practice establishes the relevance of this research.

The Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, such as PF-5847

[39] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

dated October 8, 2019, on "Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030," PF-5847 dated October 8, 2020, on the same topic, PF-60 dated January 28, 2022, on the "New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026," PQ-2909 dated April 20, 2017, on "Measures to Further Develop the Higher Education System," PQ-3775 dated June 5, 2018, on "Additional Measures to Improve Education Quality in Higher Education Institutions and Ensure Their Active Participation in the Ongoing Comprehensive Reforms in the Country,"[2] as well as other relevant regulatory and legal documents, serve as a basis for implementing the tasks outlined. This dissertation significantly contributes to fulfilling these tasks.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. This research has been conducted in accordance with the priority direction of the development of science and technology in the Republic, specifically the I. "Formation of an innovative ideas system and ways to implement them in the development of an information society and a democratic state in terms of social, legal, economic, cultural, and moral-educational aspects".

Level of study of the problem. The issue of systematically interpreting the conceptospheres of different nations and peoples in linguistics has been studied as the subject of various research works. In particular, in Russian linguistics, scholars such as Yu.E. Prokhorov, L.I. Drofa, D.S. Likhachev, S.A. Askoldov, R.M. Frumkina, A.Vejbitskaya, Z.D. Popova, I.A. Sternin, V.N. Teliya, V.V. Kolesov, N.D. Arutyunova, V.V. Krasnykh, A.V. Trofimova, N.M. Kataeva, U.D. Kambaralieva, Z.K. Derbishova, O.A. Ipanova, G.A. Abikanova, A.R. Buteshova, A.P. Babushkin[3], have conducted scientific research on concepts

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni. "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risi"da; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida."; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli Qarori. "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida."; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli Qarori. "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida." to‘g‘risida”gi qarori.

[3] Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М., 2008. – 397 с. Дрофа Л.И. Ключевые понятия когнитивной лингвистики. – Ош, 2009.-89с. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка// Изв. РАН – СЛЯ. – 1993, №1. - С. 3-9. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., 1997. – 260-267 сс. Фрумкина Р.М. Концептуальный анализ с точки зрения лингвиста и психолога // Научно-техническая информация. – 1992. Сер. 2. - №3. 3-9сс. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.,1996. – 416с. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – 211б. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. - М. Наука, 1986. - 173 с. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж, 1996. – 281 с. Колесов В. В. Концепт культуры: образ – понятие – символ // Вестник СПбГУ. Сер.2. Вып. 3 (№16), 1992. С. 16–25. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. М., 1988. - 339 с. Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность?. - М.: ИТДК Гнозис, 2003. - 375 с. Трофимова А.В. Концепт "Огонь" в современном русском языке: автореф. дис. канд. филолог. наук: 10.02.01 / А. В. Трофимова. - Электрон. текстовые дан. - М., 2005. - 26 с. Катаева Н. М.. Русский концепт ВОЛЯ: От словаря - к тексту: диссертация кандидата филологических наук: 10.02.01 Екатеринбург, 2004- 180 с. Камбаралиева У.Д. Темпоральная категоризация в концептуальной картине мира. – Бишкек, 2013. – 490 с. Дербишова З.К. Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры –Б.,2012 – 176 с. Ипанова О.А. Концепт «Жизнь» в русской языковой картине мира: лингво-культурологический и лексикологический аспекты: автореф. дис....канд.филол. наук/О.А.Ипанова.-СПб.,2005.-25с. Абыканова Г.А. Концепт «вода/суу»

in various languages. In our country, research dedicated to the general theoretical, specific, and practical methodologies of cognitive linguistics, particularly linguocognitive science, has been conducted by linguists such as M.R. Galieva, A.A. Abduazizov, D.U. Ashurova, M.D. Djusupov, M.I. Umarxo‘jayev, A.E. Mamatov, Sh. Safarov, O‘.Q. Yusupov, G.M. Hoshimov, J.A. Yaqubov, M.A. Abduvaliyev, and D. Bahronova[4].

The connection of the research topic with the research work of the higher educational institution where the dissertation was completed. The dissertation was completed in accordance with the research plan of the Andijan State Institute of Foreign Languages within the framework of the topic “A sustainable development model of foreign language education based on the integration of language and culture: linguistic, philological, linguodidactic and digital approaches.”

The aim of the research is to uncover the linguocognitive, linguocultural, and linguopragmatic characteristics of the units that shape the linguistic landscape of the "mouth/og‘iz" concept in English and Uzbek languages.

The tasks of the research:

to analyze linguistic-cognitive theories, concepts, and related notions within linguistics, and provide commentary and interpretation;

to determine the field nature, scale, and core-periphery units of linguistic and figurative means representing the "mouth/og‘iz" concept in English and Uzbek languages;

